

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 47 331,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 8,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 116,7 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 %ga yetdi.

### Yalpi hududiy mahsulot


	mlrd. so'm		2020-yil yanvar–dekabr oyiga nisbatan, % hisobida
	2020-yil	2021-yil	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>37 560,2</b>	<b>47 331,9</b>	<b>108,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 265,5	45 654,1	107,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 294,7	1 677,8	108,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>36 265,5</b>	<b>45 654,1</b>	<b>107,9</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 626,2	16 052,6	103,7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 990,7	12 784,8	110,2
sanoat	7 591,8	9 725,0	108,5
qurilish	2 398,9	3 059,8	115,8
<b>Xizmatlar</b>	<b>13 648,6</b>	<b>16 816,7</b>	<b>110,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 947,9	3 597,3	109,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 105,3	2 812,5	123,8
boshqa xizmat tarmoqlari	8 595,4	10 406,9	107,2

*Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,5 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 35,2 % ni, sanoat tarmog'i 21,3 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 36,8 % ni tashkil qildi.

### 2021 yilning yanvar–dekabrda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,2 %), sanoatda – 108,5 % (21,3 %), qurilishda – 115,8 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 110,2 % ni (36,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,4 % (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 123,8 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,2 % dan (22,7 %) iborat bo'ldi.


**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**  
(yanvar–dekabr holatiga, jamiga nisbatan %da)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,9 %ni (2020 y. – 8,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,2 %ni (5,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 22,7 %ni (23,8 %) tashkil etdi.


## Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi

(yanvar–dekabr, jamiga nisbatan %da)




2021-yilning yanvar–dekabr oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 12 267,9 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (9 920,8 ming so'm) mos davriga nisbatan 5,9 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 69,9 %ni tashkil qildi.

**YaHMda kichik biznesning ulushi**  
(yanvar-dekabr oylari, jamiga nisbatan %da)



**2021 yilning yanvar–dekabrda YaHM ning deflyator indeksi bo‘yicha o‘shish sur‘atlari (%)**



***Iqtisodiy faoliyat turlari***

